

**YOSH DAVRLARDAGI INQIROZLAR.BOLALARNING
PSIXOLOGIYASIDAGI ÓZGARISHLAR.**

*Qoraqalpoq davlat universiteti
San'atshunoslik fakulteti Pedagogika
Pedagogika va psixologiya yónalishi
talabalari
Ismailova Guljahon Fahraddinovna
Madaminova Nargiza Qurbonbayevna*

Annotatsiya .Maqolada yosh davrlar inqirozi bir yoshdan keyingi yosh bosqichiga ótish davridagi bolalardagi psixologik ózgarishlar ularning holati ota onalarning ótish davridagi injiqliklariga bee'tibor bólishiga yól qóymaslik .Bolalarning qiziqishlarini sindirmasdan inobatga olish.

Kalit so'zlar: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev ,ma'naviy yetuklik yosh davrlar inqirozi ,A.P.Larin o'smirlik davri xususiyatlari.

Ma'lumki, shaxsning qadriyati uning jamiyatda tutgan o'rni bilan belgilanib, ko'p jihatdan uning tarbiyasiga bog'liq bo'ladi. Shu sababli ota–ona o'z bolalarining tarbiyachisi hisoblanadi. O'zbek oilalari totuvligi, bolajonligi, yaqin birodarlar va qarindosh–urug'larga nisbatan o'zaro hurmatda bo'lish, mehr – oqibat rishtalarining mustahkamligi va boshqa oilaviy qadriyatlarning ustunligi bilan ham dunyodagi ko'pgina millat, xalqlardan ajralib turadi.O'zbek oilasining o'ziga xosligi sharqona odob-axloq, rasm-rusum, urf-odat, milliy qadriyat hamda an'analar, ta'lim-tarbiya, ma'naviy yetuklikka intilish kabilarning barhayotligidadir. Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat.va bu odatda bir kunda sodir bo'lmaydi. Bolalar tug'ilganidan boshlab hayotimizda ózgarishlar yuzaga kela boshlaydi.Ana shu o'zgarishlar nafaqat bizning balki bolalar hayotida ham kóplab ózgarishlar ótish davrlari bóladí ósha payt kópgina ota onalar qiynalishadi.Bolada sodir bo'ladigan psixik o'sish, o'zgarish real hayotda o'z o'rni va mavqeiga ega bo'lishi biroz murakkabroq kechadi. Buning sababi bir tomondan bolada hali etarlicha tajribaning etishmasligi bo'lsa, ikkinchi tomondan kattalarning boladagi ehtiyoj va intilishlari ortida turgan rivojlanish xususiyatlarini to'liq anglab etmasliklaridadir. Natijada esa bolalar va kattalarning munosabatlarida keskin vaziyatlar vujudga keladi. Bunday vaziyatlar tufayli bolalar va kattalarning boshdan kechiradigan psixik kechinmalari, holatlari psixologik tilda inqiroz tushunchasi bilan ifodalanadi. Demak, inqiroz tushunchasining mazmuni psixik o'sishdagi ziddiyat, qarama-qarshilikdan iborat. Bu jarayonda bolalar bilan kattalar o'rtasida kelishmovchiliklar yuzaga keladi.Inqiroz

bolalarda xilma-xil ehtiyojlarning paydo bo‘lishi bilan ularning qondirilishi imkoniyatlari o‘rtasida to‘siq sifatida vujudga kelar ekan albatta uning ta‘sirida u yoki bu tomonga o‘zgarish ro‘y beradi. Yosh davrlar psixologiyasida asosiy inqiroz davrlari sifatida bolalarning 3 yoshli, 7 yoshli hamda o‘smirlik davri inqirozlari alohida e‘tirof etiladi. Bola hayotining birinchi yilidagi yosh inqirozi bolaning emaklab yuruvchi go‘dak holatidan mustaqil yuradigan, o‘zining birinchi ehtiyoj va istaklarini bildirishga harakat qiladigan chaqaloqqa o‘tishi bilan bog‘liq. Ko‘pincha bu yoshda, bola allaqachon ko‘p narsalarni o‘zi qilishni xohlaydi - yuqori tokchaga chiqish, qoshiq bilan mustaqil ovqatlanish, poldan yarim metr balandlikda kvartiraning bo‘sh joyini o‘rganish, lekin bir vaqtning o‘zida, jismoniy rivojlanish, muvofiqlashtirish va notinch g‘amxo‘r ota-onalar rivojlanishi unga bunday imkoniyat bermaydi, erkinlik va kashfiyot va harakat uchun joy cheklaydi. Bu inqirozga qarshi kurashda onaning eng ishonchli quroli bu xotirjamlik va farzandiga bo‘lgan cheksiz mehridir. Atrof-muhitni iloji boricha saqlang va bolangizga makonni o‘rganishiga imkon bering. Farzandingizning ko‘zidan barcha xavfli narsalarni olib tashlang. Taqiqlash o‘rniga, bolaga bu narsalar nima ekanligini, nima uchun kerakligini, qanday ishlashini tushuntirishni boshlang. Ko‘pgina ob‘ektlarni o‘rganib, ularda qiziq narsa topilmasa, bola qiziqishni yo‘qotadi. A.P.Larinning tadqiqotlarida esa noqulay va nomaqbul tarbiyaviy shart-sharoitlarda qaysarlik juda erta, hatto uch yoshda ham paydo bo‘lishi ifodalangan. Dastlab bu xususiyat ba‘zi-ba‘zida ro‘y beradi, lekin u hech qachon barcha katta yoshdagi kishilarga qaratilgan bo‘lmaydi, ya‘ni uning ob‘ekti alohida shaxs hisoblanadi..Bolaning psixikasida vujudga keladigan inqirozning sabablari sifatida quyidagilarni e‘tirof etish mumkin:

- kattalar bolaning jismoniy va aqliy imkoniyatlarini hisobga olmasliklari; xohish va istaklarini mustaqil xolda turmushda qaror toptirishga intilishlariga to‘sqinlik qilishlar
- ayrim ko‘zga tashlangan qiyinchiliklarni bartaraf qilishga o‘rinishlariga yo‘l qo‘ymasliklari;
- bola o‘z xolicha ish tutishini cheklashlari.Kattalar bolalarning rayiga, mustaqilligiga qarshi turmasdan, mumkin qadar istagiga, intilishiga yordam bersalar, uning shaxsini shakllantirish jarayonidagi qiyinchilik o‘z-o‘zidan barham topadi, nizo yoki ixtilofning oldi olinadi.Oilada, maktabgacha tarbiya muassasalarida shaxslararo munosabatlar ilmiy asosda qurilib, muayyan qoidalarga suyanilsa va pedagogik odob doirasidan chetga chiqilmaca, yuqorida aytilgan ziddiyatlar yuzaga kelishi mumkin emas.Kichik maktab yoshidagi inqiroz bólsa bu bolaning maktabga borish jarayonida yuzaga keladi.Bolani faqat óqish bilan shuğullanishga majbur qila boshlaymiz.Lekin bolaning xohishini unutib qo‘yamiz ko‘pchilik bolalarda adaptatsiya jarayoni qiyinchilik injiqliklar bilan kechadi.Boğchada bolalarni maktabga tayyorlaydi kópchilik bolalar osha yerda órganadi lekin boğchaga bormagan bolalarda bólsa bu

jarayon murakkab kechadi. O`smir kamolotining eng og`ir davri uning xarakterining shakllanish jarayoni maktabda ta`lim olish yillariga to`g`ri keladi. Xarakterining shakllanishi esa o`spirinning atrofdagilar bilan bevosita aloqasiga bog`liqdir. Qaysi hayotiy va kasbiy yo`lni tanlashi, ustozining uni qanday tarbiyalashi va yo`naltirishi kuniga besh-olti soat maktabda bo`ladigan bolaning kelajagini ko`p jihatdan belgilaydi. Uni kamolotning to`g`ri yo`lidan olib boradigan, olamni tanitadigan, oqil, olijanob, abadiy ezguliklarga o`tgatadigan muassasa bu –maktabdir. Ma`lum yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlarini bilmay turib, ularga maqsadga muvofiq ravishda ta`lim va tarbiya berib bo`lmaydi. Bolaning har bir yoshi o`z qiyinchiliklariga ega bo`ladi va o`ziga nisbatan maxsus munosabatda bo`lishni talab qiladi. Kichik maktab yoshidagi bolalarga nisbatan psixologik jihatdan to`g`ri keladigan va yaroqli bo`lgan narsa, ko`pincha o`smirlarga nisbatan yaroqsiz va xato bo`lishi mumkin.

Biroq o`qituvchi, tarbiyachi shunchaki ma`lum yoshdagi o`quvchi bilan emas, balki konkret bir o`quvchi bilan, individual shaxs bilan ishlaydi. O`quvchining bilishi mutlaqo zarur bo`lgan individual farqlar bitta yosh doirasida nihoyat darajada katta bo`ladi. Psixologiyada o`smirlik yoshining xarakteristikasi haqida so`z yuritilganda asosan gap shaxsning aqliy taraqqiyoti o`tish davri bilan bog`liq holda yuzaga keladigan muammolar yuzasidan boradi. O`smirlik yoshida bilish jarayonlarining taraqqiyoti hamda aqliy taraqqiyot muammolariga bag`ishlangan ishlar mavjud, ammo ular barmoq bilan sanarli darajada bo`lib muammoni atroflicha yoritib berish uchun etarli emas. O`smirlik davrida aqliy imkoniyatlarning o`shishida ularning voqea xodisalarga nisbatan ongli munosabatda bo`lishi hamda o`qishga bo`lgan munosabatlari darajasining kuchayishi ham ta`sir ko`rsatadi. Bu omil ularning o`qish faoliyati motivlarining murakkabligida namoyon bo`ladi, ya`ni o`smirlarning o`qish faoliyati motivlari tarkibiga keng ijtimoiy motivlar (bilim olishning ijtimoiy jihatdan muhim ekanligini anglash, mustaqil xayot va mexnatga tayyorlanish uchun o`qishning zarurligi) bilan muvaffaqiyatga intilish, izzat nafs bilan bog`liq bo`lgan bilish motivlari hamda shaxsiy motivlar (obro` qozonishga intilish, raxbarlik rolini o`ynash va hakoza) birga qo`shilib ketgan bo`ladi. O`smirlik davrida aqliy taraqqiyotda muhim siljishlar yuz beradi. Xulosa qilib shuni aytamanki yosh davrlar inqirozi bolalarda g`odaklarda bir yosh davridan keyin yosh davriga o`tish davridagi psixologik o`zgarishlarda har xil holatlar kuzatiladi. O`sha payt ota onalar sabrli b`olib inqirozda farzandlarining fikrlarini ularning ehtiyojlarini inobatga olib e`tibor qaratilsa ular bu qiyinchiliklardan osonlikcha o`tib ketishlari mumkin. Bizga ma`lumki o`smirlik davrida aqliy qoboliyatlarni har tomonlama rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar mavjud bo`lib, ulardan to`g`ri foydalanish bizning nazarimizda bu davrda sodir bo`ladigan ayrim salbiy xolatlarning oldini olishga xizmat qilishi tabiiydir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ózbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev.
2. Ta'lim tizimida uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayonining ijtimoiy va pedogogik psixologik asoslari maqolalar tóplamidan (183-bet)
3. Международный научный журнал "научный импульс" Bolaning rivojlanishi davri psixologiyasi (37-bet)
4. Internet ma'lumotlari Yosh davrlar inqirozi